

**G'ARBIY OSIYO XALQLARI ETNOLOGIYASI TARIXINI ILMIY
JIHATDAN O'RGANISH**

*Andijon davlat pedagogika instituti Tarix kafedrası Tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent **Abdullayeva Nasibaxon Arabovna***

*Andijon davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy va amaliy fanlar" fakulteti
Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi **Olimova Zulfiyaxon Ibrohimjon qizi***

zulfiyaolimova98@gmail.com

*Andijon davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy va amaliy fanlar" fakulteti
Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi **Xayitova Xanifaxon***

Annotatsiya: *Ushbu maqolada G'arbiy Osiyo mintaqasida yashovchi xalqlarning etnologik tarkibi, ularning kelib chiqishi, tarixiy rivojlalash bosqichlari va madaniy xususiyatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida turli xalqlarning o'zaro ta'siri, migraatsiya jarayonlari, diniy va ijtimoiy omillar etnik shakllanishga qanday ta'sir qilgani yoritiladi. Shuningdek, G'arbiy Osiyo xalqlari etnologiyasini o'rganishning dolzarbligi, ilmiy metodlari va zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Osiyo, g'arb, Kipr, Kavkaz bo'yni, Sharqiy Tavr tog'lari, til, din, xo'jalik, xristianlik, vahobiylik, islom dini.*

Аннотация: *В данной статье на научной основе проанализирован этнологический состав народов, проживающих в Западноазиатском регионе, их происхождение, этапы исторического развития и культурные особенности. В ходе исследования будет освещено, как взаимодействие различных народов, миграционные процессы, религиозные и социальные факторы повлияли на этническое формирование. Также анализируются актуальность, научные методы и современные подходы к изучению этнологии народов Западной Азии.*

Ключевые слова: *Азия, запад, Кипр, Закавказье, восточные Таврские горы, язык, религия, хозяйство, христианство, ваххабизм, Ислам.*

Annotation: *This article analyzes the Ethnological composition of the peoples living in the West Asian region, their origin, stages of historical development and cultural characteristics on a scientific basis. During the study, the interaction of different peoples, migration processes, how religious and social factors influenced ethnic formation are covered. Also, the relevance, scientific methods and modern approaches to the study of the Ethnology of the peoples of Western Asia are analyzed.*

Keywords: *Asia, West, Cyprus, Caucasus Neck, Eastern Torah mountains, language, religion, farm, Christianity, Wahhabism, Islam.*

Osiyo ulkan qit'a bo'lib, uning iqlim – tabiati va aholisi ham hilma – hildir. Osiyo antropogen hudud hisoblanib, qitada insonning vujudga kelishi va shakllanishi jarayonlari bo'lgan. Aynan Osiyoda barcha dunyo dinlari vujudga kelib so'ng boshqa qit'alarga ham tarqalgan. Osiyoni etnologik jihatdan beshta qismga: G'arbiy (Old), Janubiy, Janubiy-Sharqiy, Sharqiy va Shimoliy (Sibir) tarixiy madaniy – guruhlariga bo'linadi. Geografik jihatdan qit'aning 70% dan ortiq hududi tog'lardan iborat. Dunyodagi eng baland tog'lar, yoki sakkiz ming metrdan oshiq cho'qqilar (Jamolungma ham) Osiyoda joylashgan. Unga subtropik hududlar bilan bir qatorda mo'tadil iqlimi hamda dasht, cho'llar ham mavjud. Qit'a flora va faunaning ko'plab turlari vatanidir. Yirik daryolar Frot, Dajla, Hind, Ganga, Braxmaputra, Mekong, Xuanxe, Yantszilarning bo'lishi unda ishlab chiqarish xo'jaligining erta rivojlanishi imkoniyatini bergan. Hozirgi Osiyoda dunyo xalqlarining yarmidan ortig'i yashaydi. Aholi eng zich joylashgan hududlar yuqorida nomlari zikr etilgan daryolar vohalaridir. Tabiiy iqlim sharoitidagi hilma-hillik etnik tarkibning, til va irqiy klassifikatsiyalardagi murakkablikni ta'minlaydi. Eng qadimgi odam qoldiqlari pitekanthropning yoshi 1 mln. yil bilan belgilanadi.

Osiyoning subtropik tog'oldi hududlarida bundan 10-11 ming yil ilgari dastlabki o'simlik va hayvon turlari xonakilashtirilgan, madaniylashtirilgan. Xususan Old Osiyoda: yovvoyi bug'doy, ikki qatorli arpa, no'xot va boshqalar. Hayvonlardan: yovvoyi echki, muflon (qo'y) to'ng'iz, tur, va boshqalar

xonakilashtirilgan. Bu esa mil. avv. 8 – 5 ming yilliklardayoq eng qadimgi dehqonchilik va chorvachilikka asos bo'ladi. mil. avv. 4 – 3 ming yilliklarda eng qadimgi davlatlar Shumerda vujudga keladi. shundan so'ng ilmga asoslangan dehqonchilik, bog'dorchilik, to'qimachilik, yozuv, pul vujudga keladi. tez orada Osiyoda boshqa davlatlar: Elam, Mohendjo-doro, Xarappa tashkil topadi. Mil. avv. 2 – 1 ming yilliklarda sharqiy va janubiy – sharqiy Osiyoda davlatlar paydo bo'ladi.

Cho'l, dasht, tog' oldi hududlarida aholi qadim zamonlarda kompleks xo'jalik: termchilik, ovchilik, chorvachilik shug'ullanib kelgan. Mil. avv 2 ming yillik oxirlarida hududda chorvachilik keng tus olgan. Mil. avv. 1 ming yillik boshlarida chorvadorlar guruhi ijtimoiy – iqtisodiy va tabiiy iqlim sharoitiga qarab ko'chmanchi va yarim ko'chmanchilarga ajrala boradi. Ayni paytda davlatlar vujudga kelgan hududlar chegaralarida ovchi – baliqlar va ibtidoiy termchilar guruhlari istiqomat qilishgan. Janubi – sharqiy Osiyoning ayrim xududlarida hozirga qadar baliqchilik va termchilik bilan shug'ullanadigan aholi guruhlari mavjud.

Osiyoda turli geografik tarixiy, ijtimoiy sabablar tufayli murakkab etnik jarayonlar kechgan. Minglab yillar davomida bu hududda migratsiyalar, urushlar, demografik portlashlar tufayli etnoslarning aralashuvi ko'lam va turlari mislsiz tarzda bo'lgan. Tillar, dinlar, xo'jaliklar va boshqa madaniy qadriyatlar almashganligini kuzatamiz. Osiyoda barcha irq vakillari uchrasada asoaiy ko'pchilik mongoloid va yevropoidlardir. irqlar chegaralarida turli irqiy tiplar vujudga kelgani ham tabiiydir.

Osiyoning tillari ham murakkab hududda yirik yuzlab million aholi gaplashadigan tillar qatorida mayda yoki kamyob tilli etnoslar ham uchraydi. Ayni murakkablik xo'jalik – madaniy tiplarga ham ta'luqlidir. Qit'ada ovchilar, baliqchilar, motiga dehqonchiligi, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvadorlar, omoch, plug dehqonchiligini ham uchratamiz. Osiyoda Taraqqiy etgan mamlakatlar bilan bir qatorda ko'plab kambag'al mustaqil taraqqiyotga o'tganiga ko'p bo'lmagan mamlakatlar ham mavjud.

G'arbiy (Old) Osiyo xalqlari:

“Old Osiyo - Osiyo qit'asining g'arbiy va jan.-g'arbiy qismida joylashgan

hududlarning shartli nomi. Gʻarbiy Osiyoga tabiiy jihatdan Kichik Osiyo, Arabiston, Sinay yarim orollari va ularga yondosh orol va hududlar (Kipr, Kavkaz boʻyni, Sharqiy Tavr togʻlari va Eron togʻligining katta qismi, Mesopotamiya pasttekisligi hamda Oʻrta dengizning sharqiy sohilidagi hududlar, xususan, Levant oʻlkalari) kiritiladi. Maydoni 7,5 mln. km².¹

Old Osiyoda odamlar neandeltallar davridan yashab keladi. Mezolit davrida Gʻarbiy Osiyoning va sharqiy va markaziy qismlarida nutufiy madaniyati, shimolda esa zarziy madaniyati shakllangan. U zamonlardagi etnik tartibni aniqlash mushkul lekin olimlarning fikricha irqiy jihatdan aholi yevropoid boʻlgan. Aholining etnik tartibi haqidagi ile maʼlimotlar mil. avv. 4 – 3 ming yilliklarga oid. Aynan shu paytda shumerlar oʻzlarining mixxat yozuvlarini ixtirno qilgan. Lekin shumerlar tili hozirda bizga maʼlum boʻlgan biror xalqning tiliga oʻxshamaydi. Olimlar Gʻarbiy Osiyo aholisining qolgan qadimgi tillarini shartli ravishda “kaspiy til” guruhiga kiritadilar, hududda semitlarning ajdodlari yashaganligini taʼkidlashadi. Masalan: mil. avv. 3 ming yillikda yashagan akkadlar semit tilli boʻlishgan. Ular boshqalar bilan hamkorlikda qadimgi Bobil madaniyatini yaratishgan. Hududdagi boshqa xalqlar xususan finikiyaliklar ham oʻz yozuvlarini yaratganlar. Mil. avv. 2 ming yillikda Old Osiyoda ilk Hind yevropa tilli aholi paydo boʻlib ular Xet davlatini tuzadilar. Mil. avv. 14 asrda yana bir davlat Urartu vujudga keladi. Mil. avv. 1 ming yilliklarda hind – yevropa tillik aholi tarqalgan hududlarda qudratli davlatlar : Midiya, Fore (Pareua), sal keyinroq Baqtriya va Parfiya vujudga keladi. Old Osiyodagi etnik jarayonlarga milodiy 7 – 8 asrlarda arablar istilosi ham katta taʼsir koʻrsatadi. Yangi etnik jamiyatlar shakllanib, arab madaniyati keng tarqaladi. Old Osiyoga Oʻrta Osiyodan turkiy qabilalarining koʻchib oʻtishi ham ahamiyat kasb etadi. Etnik tartibdagi soʻnggi qatlam aynan saljuqiy turklar (oʻgʻuzlar) bilan bogʻliqdir. Bugungi kunda Gʻarbiy Osiyodan yetakchi tillar: hind – yevropa, semit – hamit va oltoy tillaridir. Hind – yevropa tillarining eron til guruhi tarqalgan. Irqiy jihatdan aholi yevropoid, arab mamlakatlarida qisman negroid – habashlar, Afgʻonistondagi hazoralarda moʻgʻullik xususiyatlari mujassamlashgan. “Old Osiyo aholisining turli tumanligi

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/G%CA%BBarbiy_Osiyo
www.tadqiqotlar.uz

bilan xususiyatlanadi. Turkiya 61,4 mln eng yirik etnos turklardan tashqari kurtlar 5 mln. simmitlar 820 mln. slavyanlar 70 mln. armanlar 150 mln va hakoza. Eron (1995 yil 61,3 mln) 40 dan ortiq xalq va elatlar mavjud. Forslar 45,6% kurdlar 9,1% - 5 mln; turkiyzabonlar 13,280 m ulardan ozarboyjonlar 10 mln, turkmanlar 1,0 mln, memitlar 10 m, armanlar 200 m va h.ko”².

Afg`oniston maydoni 647,5 m.km. aholisi 18,4 mln. Eron guruhi 15,8 mln pushtunlar 10 mln tojiklar 4,0 mln, turkiy xalqlar 2 mlndan ortiq.

Isroil – 68,7 m km. aholisi 5,5 mln. Yahudiylar – 83,5 % arablar 16,8%. Rasmiy tili ibrit. Qadimgi yahudiy alfabiti yozuvi asosidadir.

**Xo`jaligi.** Xo`jalik asosi dehqonchilik ayni paytda ko`chmanchi, yarim ko`chmanchi chorvachilik xo`jaligi ham o`z o`rniga ega. G`arbiy Osiyoda dehqonchilik sun`iy sug`orishga asoslangan. Sug`orish to`g`onlar, suv omborlari, kanallar ko`magida o`z oqimi yoki nasoslar yordamida suv haydab beriladi. Chig`ir yordamida baland joylarga suv chiqarish davom etmoqda. Hozirga qadar sug`orishda korizlardan ham foydalanishadi. Hovuz, quduqlar ham o`z o`rniga ega. Eron va Afg`onistonda lalmidan tashqari sug`oriladigan ekinzorlarda don, bug`doy, arpa yetishtiriladi. Xurmo daraxti, tsitrus sholi ekiladi. Yamanda kofe o`stiriladi. Subtropik hududlarda bog`dorchilik, uzumchilik, tsitrus, bodom, pista o`stiriladi. Turkiya, Eron, Afg`onistonda boshqa qishloq xo`jaligi ekinlari qatori paxta tamaki, mavali daraxtlar ekiladi. Eron a`lo sifatli guruch yetishtirishdan tashqari zaytundan yog` olish uchun plantatsiyalar yaratgan. Qo`l mehnati keng qo`llanilib, suv tegirmonlari, qo`l yorg`ichoqlari ham saqlanib qolgan. Chorvachilik asosan cho`l va tog`li hududlarda tarqalgan. Saudiya Arabistonida bir urkachli dramoderlar, Eron va Afg`onistonda qo`ychilik yetakchi o`rin tutadi.

Moddiy madaniyat. “G`arbiy Osiyo xalqlari asosan qishloqlarda yashaydi. Qishloqlar yirik tartibsiz qurilgan uylar yig`indisi. Eng ko`p qishloqlar tog`li hududlarda uchraydi. Qo`rg`onlar markazida bozor maydoni, masjid, kafe, choyxona, ma`muriy binolar joylashgan Qurilish ashyolari mahalliy sharoitga mos. Tog`da tosh, cho`l-dashtlarda somonli loy. Ko`chalar aksari tor ilonizi, ko`pgina

² <https://ziyouz.com> sayti
www.tadqiqotlar.uz

qishloqlarda vodoprovod, gaz o'tkazilmagan"³. G'arbiy Osiyoga hozirga qadar ma'lum sondagi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchilar mavjud. Ularda qishlov va yozlov (yaylov) joylari bo'lib, badaviylarning yozgi lagerida ba'zi yuzlab oilalar to'planib, bu hol hududdagi quduqlarning siyrak va zichligibilan ifodalanadi. Hozirda badaviylarda zamonaviy texnika va aloqa vositalari mavjud. Shunga qaramasdan an'anaviy xo'jalik ularda o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Old Osiyoliklar uy – joylari to'rtburchakli ashyosi qayerda qurilgani bilan, tog'dami yoki tekislikda bog'liqdir. Arabiston yarim orolining janubida 8-10 qavatli hom g'ishtdan qurilgan uylar uchraydi. Ko'pgina hududlardagi uylarning tomlari tekis yopilgan. Uyning tarxi egasining moddiy imkoniyatlari bilan bog'liqdir. Hovlilar ichkari va tashqariga bo'linadi. Uy-joylari baland devorlar bilan o'ralgan.

Uy jihozlari aksari ko'pchilikda bo'ya kigiz bo'ya, pol ustida yotish uchun supa krovatlar buyumlar joylashtirilgan sandiqlardan iborat. Mebel ham ko'pincha xontaxta o'tirish uchun stullardan iborat. Uylardagi an'anaviy jihozlar qishloqlarda ko'plab saqlangan. Turmanlar o'tovi yig'iladigan yog'och suyaklardan (qismlardan) iborat. Ularning ustidan kigiz namat qoplanadi. Qolgan ko'chmanchilar uylari jun gazlama yoki brizent bilan qoplanadigan o'tovlardan iborat. Ularni tortilgan to'r ustidan qoplashadi.

Kiyimlar. Erkaklarning odatiy kiyimi beldan pastiga etagi tushadigan ko'ylak, keng katta qadam tashlab yurishga mo'ljallangan ishton – shim, yelkaga yaxtak yoki plash. Bosh kiyimlar hilma – hil. Qishda qo'y terisidan po'stin kiyiladi. Badaviylarda an'anaviy kiyim keng ko'ylak va ishton yengli yoki yeng o'rnida qoldirilgan teshikli plashlar. Turli etnoslar va qabilalar aholisining kiyim ranglari turlichadir. Eronda o'tmishda chakmon kiyishgan (kaftan). Afg'oniston pushtunlari qishda oq yoki malla rangli chakmonlar kiyishadi.

Dehqonlarda kiyim – kechak uchun asosan paxta gazlamalardan foydalaniladi. Ko'chmanchilarda qishqi kiyimlarni jun gazmalardan tikishadi. Arablarda erkaklar bosh kiyimi maxsus rumol (kufiya), uni boshning atrofida jundan

³ Jabborov I. Jahon xalqlari etnologiyasi. –T.,2005

tugunchalar bilan bezatilgan ip bilan mustahkamlaydilar. Eron va Afg'onistonda yozda ham qishda ham qorako'ldan telpak kiyadilar. Salla o'rami keng rusum bo'lgan. Oyoq kiyimi sandal, tufli, etiklar. An'anaviy kiyimlar asosan ko'chmanchilarda: badaviylar, belujiylar, pushtunlar, lurlar, baxtiyorlarda ko'proq saqlangan.

Ayollar kiyimlari. Uzun to'pig'igacha tushadigan ko'ylak va ingichka uzun lozimlardan iborat. Ko'ylaklar ustidan kofta, xalat, plashlar kiyiladi. Boshlaridagi ro'mollari ko'pincha zargarlik buyumlari bilan bezatilgan. Ko'chmanchilar ayollari rumollardan boshlarida o'rama tepacha yasab yurganlar. An'anaviy ayollar kiyimlari ko'plab, turli bezaklar bilan to'latiladi. Qoshga surma qo'yish, tirnoqlar, sochlarni bo'yash, qo'l oyoqlariga xina qo'yish keng yoyilgan. An'anaviy transport vositasi minib yurgan. Yuk tashiydigan g'ildirakli va suv transportlaridan iborat.

Din. Islom: sunna va shia mashablari. Saudiya Arabistonida vahobiylik, Suriyada ismoilitlar. Xristianlik va islom orasidagi yyezidlar, kurdlar, Shimoliy va G'arbiy Suriyada shia va xristianlik orasidagi nusayritlar mavjud.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, G'arbiy Osiyo xalqlari etnologiyasini ilmiy jihatdan o'rganish — bu mintaqada yashovchi turli etnik guruhlarining kelib chiqishi, madaniyati, urf-odatlari, ijtimoiy tuzilmasi va tarixiy taraqqiyotini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu tadqiqotlar orqali qadimiy sivilizatsiyalar — Mesopotamiya, Bobil, Ossuriya, Eron va boshqa yirik madaniyatlarning shakllanishi hamda bu jarayonda etnik guruhlarining o'zaro ta'siri aniqlanadi. Etnologik yondashuvlar G'arbiy Osiyoning murakkab etnik mozaikasini anglash, milliy va diniy ziddiyatlarning ildizlarini tushunish, zamonaviy etnik muammolarni yechishda tarixiy asoslarni topishda muhim rol o'ynaydi. Bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar nafaqat antropologiya va tarix sohalarini boyitadi, balki mintaqaviy siyosat, madaniyatlararo muloqot va integratsiya jarayonlarini ham chuqur anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ashirov A., Atadjanov Sh. Etnologiya(O'quv qo'llanma).-Toshkent:iqtisod-moliya,2008.

2. Jabborov I. Jahon xalqlari etnologiyasi. –T.,2005
3. Abdullaev, A. (2015). Osiyo xalqlari etnik tarkibi va madaniyati. Toshkent: “Fan” nashriyoti.
4. Bobojonov, S. (2018). Sharq xalqlari tarixi va madaniyati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
5. Askarov, A. (2000). Qadimgi Osiyo sivilizatsiyalari. Toshkent: Sharq nashriyoti.
6. Vambery, A. (1876). Travel in Central Asia: The Narrative of a Journey through the Region of G‘arbiy Osiyo. London.
7. <https://ziyouz.com> sayti
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/G%CA%BBarbiy_Osiyo